

SURXON VOHASIDA KASHTACHILIK SA’NATINING TARIXIGA NAZAR

Mamatova Fazilat Ixtiyorovna

Termiz davlat pedagogika instituti

Aniq va tabiiy fanlar fakulteti

Texnologiya va geografiya kafedrasi o’qituvchisi

Turdiyeva Shahzoda Eshdavlat qizi

Texnologiya ta’lim yo’nalishi talabasi

Annotatsiya

Mazkur ilmiy maqola Surxon vohasida kashtachilik san’ati tarixini, uning rivojlanish bosqichlarini va milliy hunarmandchilikdagi o’rnini o’rganishga bag’ishlangan. Tadqiqot davomida kashtachilik san’atining mahalliy an’analari, uslublari, rang-tasvir uyg’unligi hamda ularning madaniy-tarixiy ahamiyati tahlil qilinadi. Shu bilan birga, Surxon vohasida kashtachilik san’ati rivojlanishiga ta’sir ko’rsatgan omillar hamda hunarmandchilikning zamonaviy holati bo’yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so’zlar: kashtachilik, mato, mahsi, naqsh.

Абстрактный

Научная статья посвящена изучению истории искусства вышивки в Сурханском оазисе, этапам его развития и месту в народном художественном творчестве. В ходе исследования будут проанализированы местные традиции, стили, цветовая и образная гармония вышивки, а также их культурно-историческое значение. В то же время даются рекомендации относительно факторов, повлиявших на развитие искусства вышивки в Сурханском оазисе и современное состояние этого ремесла.

Ключевые слова: вышивка, ткань, махси, узор.

Abstract

This scientific article is devoted to studying the history of embroidery art in the Surkhan oasis, its stages of development and its place in national crafts. During the research, local traditions, styles, color-image harmony of embroidery art and their cultural and historical significance are analyzed. At the same time, recommendations are given on the factors that influenced the development of embroidery art in the Surkhan oasis and the modern state of the craft.

Keywords: embroidery, fabric, mahsi, pattern.

KIRISH:

O‘zbek milliy kashtachiligi amaliy san’atning eng qadimiy turlaridan bo‘lib, u xalqning ijtimoiy turmushini go‘zal qilish san’ati sifatida nafaqat mamlakatimizda, balki chet ellarda ham shuhrat qozongan. Surxon vohasida xalq ustalari tomonidan qo‘l mehnati bilan tikilgan so‘zana, zardevor, go‘lko‘rpa, choyshab kabilar. Bugungi kunda Germaniya, Fransiya, Belgiya, Yaponiya, AQSH, Hindiston, Afg‘oniston kabi xorijiy davlatlarning muzeylari ekspozitsiyalarida xalqimizning milliy kashtachilik bilan bog‘liq turli asori-atiqalari saqlanib kelinmoqda. Kashtachilik buyumlari o‘ziga xos go‘zallik va nafis bezaklarning rang-barangligi bilan kishilarni hayratlantirishi maqolada o‘z aksini topgan. Voha kashtachiligi uzoq tarixga ega. Buni arxeologik topilmalar, yozma manbalar va dala tadqiqotlarida olib borilgan kuzatuv ishlari ilmiy jihatdan isbotlab bermokda. Ma’lumki, o‘zbek kashtachiligi iqlim, tabiiy geografik sharoit va ijtimoiy muhit bilan bog‘liq holda barcha kasb-hunarlar bilan birgalikda rivojlanib kelingan bo‘lsa-da, ammo hozirgi sharoitda kasanachilik sohasida saqlanib kelinmoqda. Voha kashtachiligining o‘ziga xosligi shundaki, nafaqat iqlim, tabiiy sharoit, balki urug‘-qabila urf-odatlarini, ananalari bilan ham bir-birini takrorlamasdan shakllanib kelmoqda. Vohada kashtachilik san’atining eng kadimiy namunasi saklanmagan. O‘rta Osiyoning XIV-XV asrlarga mansub miniatyuralar orqali biz vohada kashtachilik juda kadimdan rivojlanganligini ko‘rishimiz mumkin. Kamoliddin Behzod chizib qoldirgan bebaho miniatyura asarlarida ham otabobolarimizda kiyinish madaniyati yuksak bo‘lganini ifodalab bergan. Xolchayon yodgorligida (Surxondaryo viloyati, Denov tumani) qadimgi devoriy sur’atlar orqali hatto eramizdan avvalgi III-II asrlarda ham vatanimiz hududida mahalliy o‘ziga xos liboslar mavjud bo‘lganini kuzatamiz. Qolaversa, qadimdan O‘zbekiston Buyuk Ipak yo‘li orqali G‘arb va Sharqqa kiyim-kechak, bosh kiyimlari va oyoq kiyimlari uchun barcha iqlim va o‘lkalarga zarur bo‘lgan paxta, ipak, qorako‘l, momiq, oshlangan ko‘n va teri yetishtirib, yetkazib bergani bilan alohida ajralib turgan. Bu o‘zbek xalqining qadimdan yuksak did bilan kiyinish madaniyatiga ega xalqlardan biri bo‘lganini isbotlaydi. 1467-yili Kamoliddin Behzod “Zafarnoma” asari uchun “Temurtaxt” da miniatyurasidagi chodirga ishlangan kashtani o‘ziga xos ekanligi ham sur’atda aks etgan. XX asrning ikkinchi yarmidan tikish mashinasining ixtiro etilishi va keng yoyilishi sanoat korxonalarining kashtachilikka ixtisoslashuviga olib keldi. Tikish mashinasida kashtachilikning ko‘plab ishlab chiqarilishi, ularning sifat jihatdan badiiyligiga putur yetkazgan. Qo‘l kashtalari unutila boshlangan, lekin ayrim turlarigina ba’zi xonadonlarda saqlanib qolingan. XIV-XV asrlarga mansub tarixiy asarlar uchun ishlangan miniatyuralardagi personajlarning kiyimlari kashta gullari bilan

bezatilgani aniq aks etib turibdi. Shuningdek, Amir Temur saroyida bo‘lgan Ispan elchi Rui Gonsales de Klavixoning bergan malumotlari orkali xam usha davr kashtachiligi xakida kimmatli ma‘lumotga ega bulish munkin. Kashta (forscha: – chizilgan, tortilgan) – amaliy bezak san‘atining keng tarqalgan turi; igna bilan tikib tushirilgan gul, tasvir, naqsh. Kashta qo‘lda (igna, ilmoqli igna, shgaokli bigiz bilan) yoki mashinada, asosan, mato (bo‘z, chit, satin, shoyi, baxmal, movut va boshqalar) va charm (etik, mahsi, pichoq qini, kamar, ot jabduklari va boshqalar) ga tikiladi. Kashta mujassamotida o‘simliksimon naqshlar, handasiy shakllar, fazoviy jismlar, meva va hayvonlarning uslublashtirilgan tasvirlari, baytlar, hamda kishilarning qiyofalari, me‘moriy obidalarning ifodalari ham tasvirlanadi[2]. Kashta – bezak turi: qo‘lda yoki mashinada belbog‘, do‘ppi, gulko‘rpa, zardevor, palak, so‘zana, ko‘ylak, shuningdek kamar, mahsi va belbog‘cha tikiladi. Kashta tikuvchi hunarmand – kashtachi yoki kashtado‘z deb atalgan. Kashtachilik – kashta tikish kasbi. Amaliy bezak san‘atining keng tarqalgan qadimiy turi hisoblanadi. Kashta tikish san‘ati ko‘p asrlik tarixga egadir. Arxeologlarning ma‘lumotlariga qaraganda, IX-XII-asrlarga oid topilmalarida qadimgi Kiyev Rusi davlatida kashta bo‘lganligidan dalolat beradi. Bu topilmalar bezak gullari xamda zar iplardan tikilgan kiyim parchalari muzeylarda saqlanib kelinmoqda. Ilk o‘rta asrlarda uy-ro‘g‘gor buyumlarini va boy, zodagon kishilarning kiyimlarini zar tikib bezashgan. Kashta tikish san‘ati an‘analari muntazam rivojlana borgan. XIV-XVII asrlarda kiyimlarni, kundalik buyumlarni bezashda kashtachilik yanada keng qo‘llaniladigan bo‘lib qoldi. Zar va kumush iplarni dur va chaqmoq toshlari bilan qo‘shib cherkov liboslariga, podsho va boylarning qimmatbaho shoyi va baxmal kiyimlariga kashta tikar edilar. Rangli ipak va zar iplar bilan to‘y sochiqlari, erkaklarning zig‘ir toladan tikiladigan yupqa bayram ko‘ylaklarini, ro‘mollarini bezashadi. Kashta tikish, asosan boy xonadon a‘zolarining kiyimlariga bezak sifatida tikilgan. Kashta tikish san‘ati vohada asosan har-bir urug‘ qabilaning o‘z uslubi asosida shakllanib borgan. Agar tadqiqotda hududlar kesimida solishtirma nazar qaratsak. Har bir viloyat kashtalari bir-biridan buyum turlari, rangi, naqshi, choki (texnika uslubi), o‘lchami bilan farqlanadi. Nurota, Samarqand, Toshkentda bosma chok; Shahrisabz va Kitobda kandahayol va iroqi, Buxoroda yo‘rma choklar keng qo‘llaniladi[3]. Lekin ba‘zi buyumlarning o‘xshash tomonlari ham uchrab turadi. So‘zana, zardevor, joynamoz, choyshab, belboq kabi kashta buyumlari deyarli barcha viloyatlarda tikiladi. Oyna xalta, choy xalta, tuz xalta buyumlarini biz faqat Surxondaryo viloyatida kuzatamiz. Joynamozlarning tikilishi, asosan, bir xil, tarhi shoyi, satin matolardan, faqat naqshi (ularning nomlanishi), hajmi va ranglarida farqlanishi mumkin. Bo‘zga tikilgan joynamozlarni Qashqadaryo viloyatida uchratish mumkin. Ba‘zi joynamozlar choyshab

singari sernaqsh qilib tikilgan. XVIII asrdan boshlab, kashtachilik aholining barcha ijtimoiy qatlamlari hayotiga kirib borgan, ya'ni dexqon qizlarining ham asosiy ishlaridan bo'lib qolgan. Uy-ro'zg'or buyumlaridan sochiqlar, dasturxonlar, bayram va kundalik kiyimlar, peshbandlar, bosh kiyimlar va boshqa shu turdagi kashtalar bilan bezatilgan. Odatda, bu buyumlar oddiy, arzon materiallardan yuksak badiiy maxorat bilan tikilgan. Kashta tikish usullari gullari, ranglarining mujassamlanganligi avloddan-avlodga o'tib takomillashib borgan. Bir necha asrlar davomida eng yaxshi kashtalar tanlanib, milliy xususiyatlari bilan xarakterli, betakror kashta namunalari yaratilgan. Xalq ustalarining yuqori kasbiy mahorati bilan tikilgan kashtalari, bezak buyumlarining gullari, ranglarning bir-biriga mosligi, mutanosibliigi, bejirim usullarining aniqligi bilan ajralib turgan. Kashta tikilgan har qanday buyum, ma'lum bir azaliy vazifani bajarishiga to'g'ri kelgan. Mamlakatimiz muzeylarida xalq kashtachiligining ko'plab namunalari to'plangan. XIX asr kashtalari yaxshi saqlanib, shukungacha yetib keldi. Kashtalar dexqoncha va shaharcha turlarga ajratiladi. Shahar kashtalari ko'proq G'arb davlatlari uslubi ta'sirida bo'lganligi uchun turli xalqlarning kashtachilik uslublari o'zaro uyg'unlashgan yoki turli kashtachilik uslublari bo'lingan. Masalan, Rossiya davlatida xalq kashtachiligi rus dehqonlarining qadimiy urf-odatlariga va marosimlariga bog'liq bo'lgan. Kashta – bezak san'ati turi. Turli rangdagi ip igna, ilmoqli bigiz bilan turli matolar – trikotaj, charm, kigiz, kartonga qo'lda yoki mashinada gul – naqsh tasvir tikiladi. Kashta kiyimlar va buyumlarni bezashda hamda ro'zg'or bezak buyumlari tayyorlashda qadimdan qo'llanilgan. Kashta, ipak, paxta, jun, zig'ir, sun'iy tolalardan tayyorlangan iplar, shoyi, zar, sim, charmdan ensiz qilib tayyorlangan tasmalarni tikib, munchok, marjon, metall pulyacha (zanglamaydigan metallardan o'rtasi teshib ishlangan doira plastinkachalar), nodir va qimmatbaho toshlar, shishalardan ishlangan munchoqlar. Har bir xalqning kashtado'zligida qadimdan rivojlanib kelinayotgan o'z an'analari, badiiy uslublari mavjud. Bezak buyumlari (palak, so'zana, zardevor va shu kabilar), kiyimlar, kichik buyumlar (dastro'mol, hamyon kabilar) ning o'zlariga munosib kashta gullari va shu kashtalarning tikilishi, usul va uslublari mavjud[4]. O'zbek kashtado'zligi kabi voha kashtado'zligi ham asrlar mobaynida boyigan, rivoj topgan. Voha kashtachilik namunalari fors-tojik, qozoq, qirg'iz, turkman, afg'on, hind, xitoy, rus kashtado'zlarining kashta usul va uslublari uchraydi. Voha kashtalarida geometrik shakllar, o'simliksimon naqsh gullari bilan birgalikda ma'lum bir oila, urug'-qabila va ulusning ramzi va choravachilik bilan shug'ullanadigan ko'chmanchi aholida hayvonot olami tasvirlari ham ramziy ma'noda o'rin olganligi ko'p ko'zga tashlanadi. Ma'lumki qozoq, qirg'iz naqshlarida mollarning shoxini eslatadigan elementlar, rus kashtalarida geometrik shakllar, o'simliksimon gullar bilan bir qatorda qushlar,

mevalarning tasvirlari ko‘zga tashlanganidek. O‘zbekcha kashtachiligining iroqi usubiga yaqin bulgan krest hosil kiladigan kashta xili keng tarkalgan. O‘rta Osiyoda kashtachilikning bezak buyumlarining tarqalishi, bu har bir oilada ayollarning kashta tikishni bilishi kerak bo‘lgan. Shuning uchun ham har bir oila o‘zi uchun kirpech, so‘zana, dorpech, oynaxalta, choyxalta va boshkalarni tayyorlagan. Bezak buyumlarining turi ko‘payib borgan sari, kundalik va ijtimoiy hayotda ishlatiladigan buyumlarning turlari ham oshib borgan. Masalan, so‘zana, palak, choyshab, oyxalta, choy xalta, zardevor, palak, gul-ko‘rpa dorpech, bo‘g‘joma, parda, belbog‘, taqyapo‘sh (yostiqlik ustiga yopiladigan), do‘ppi, ko‘ylak, dastro‘mol, hamyon, joynamoz, nimcha, mahsi-kavush, xaltacha va boshqalar badiiy did bilan bezatilgan. O‘tmishda bu kashtalar oq va malla matolarga tikilgan. Keyinchalik satin, shoyi baxmalga tikiladigan bo‘lgan. Kashtachilikda ishlatiladigan bezak buyum turlari bilan tanishib chikamiz. Do‘ppi – O‘zbekistonda keng tarqalgan yengil bosh kiyim. Do‘ppi kiyish dastlab, Eronda va turkiy xalqlar o‘rtasida rasm bo‘lgan. Asrlar davomida do‘ppining turli xillari paydo bo‘lgan. Baxmal, satin, sidirg‘a shoyiga ip, ipak va zar bilan do‘ppi gullari tikilgan. O‘zbekistonda, Toshkent, Chust, Buxoro, Samarqand, Boysun, Shahrisabz do‘ppilari mashhur bo‘lib, ular o‘ziga xosdir. Mamlakatimizning barcha viloyatlarida do‘ppi tikilgan. Uning Iroki, Chust do‘ppi, gilam do‘ppi, chakma tur, qizil gul, piltado‘zi, zardo‘ppi, to‘ldirma deb nomlanadigan milliy do‘ppilar bor. Har bir do‘ppi yaratilish uslubiga ega bo‘lib, ular bir-biridan farq qilgan. Boysunda asosan – sharsimon do‘ppi, uni asosan keksalar kiyishgan, ushbu do‘ppilar gullari va tikilish uslublariga qarab ayollar, qizlar va yigitlarni do‘ppi turlariga bo‘lingan. Toshkentda sharsimon do‘ppilar kanda xayol, bosma, chakmator, iroqi chok usullarida tikiladi. Tus do‘ppi – keng tarqalgan yassi yuzali do‘ppi. Ko‘pincha tus do‘ppi chust do‘ppi deb yuritiladi. Tus do‘ppilarning birgina klassik variantining o‘zida sakkizta chok uslubi qo‘llaniladi. Masalan, zanjir, to‘g‘ri chok, chita, kungura, yetalatma, taroq, oba, pildiroq. Chust do‘ppisining tepasi kvadrat shaklida bo‘rtib chiqib, yarim shar ko‘rinishida bo‘ladi. Toshkent do‘ppisi sidirg‘a baxmaldan (gulsiz) tikilgan. Buxoro do‘ppilari sidirg‘a yoki gulli baxmaldan jiyakli qilib tikilgan, jiyagi turli xil ipaklardan rangdor naqshli yo‘rma usulida tikilgan bo‘ladi[5]. Joynamoz – yerga solib ustida namoz o‘qiydigan to‘shama. Joynamoz har xil matodan tayyorlanib, uning uch tomoni mehrob shaklida tikilgan bo‘ladi. Undan machit, madrasa va uylarda foydalaniladi. U turli o‘lchamda bo‘ladi. Joynamoz kashtachilikda juda chiroyli qilib bezatiladi. Zardevor – uy jihozi, u sidirga shoyi baxmal, satinga kashta tikib bezatilgan badiiy buyum. Zardevor yangi tushgan kelinning uyiga, shiftiga yoki devoriga ilib qo‘yiladi. U zar ip yoki ipak gajimli bo‘lib, eni 40 - 70 smga mo‘ljallangan va uyning devoriga moslab tikiladi. Palak - devorlarga

ilinib, eng qimmat bezak buyumlaridan biri. Palakda osmon va tulin oy aks ettirilgan. Uni qadimda oq yoki malla boʻzga kashta tikib tayyorlashgan. U soʻzanadan gullarining yirikligi, zaminga ham kashta koplanishi bilan fark kilgan. Palakni oʻrtasida yirik oy tasviri qizil qirmizi, pushti ipak bilan kashtalangan va atrofiga juda chiroyli qilib oʻsimliksimon naqshlar tikilgan. Naqshlar ichida koʻpincha bodom, qalampir elementlari qoʻllanilgan. Palakda qirqtacha oy ham tasvirlash mumkin, shuning uchun oyni soniga karab, olti oyli palak, oʻn ikki oyli palak, hattoki katta uylar uchun qirq oyli palak tikilgani bizga maʼlum. Oylar turli ranglar bilan bir necha xil tasvirlangan. Mashhur kashtadoʻzlar baʼzida oyni ajoyib naqshlar bilan bezab, oʻz mahoratlarini namoyish etganlar. Agar oyni ichida sidirgʻa rangda ifodalangan boʻlsa, uni, oypalak, agar naqshli boʻlsa gulpalak va hokazo nomlar bilan yuritiladi. Keyingi vaqtlarda palakni qoʻl mehnati koʻp boʻlgani uchun soʻzana deyila boshlangan. Lekin, hozirgi kunda palakni qoʻlda tikishga katta ahamiyat berilmoqda. Kirpech - tokchaga taxlab qoʻyilgan kiyimkechak ustidan yoki devorning boʻsh joylariga ilib, uyni bezatib turish uchun ishlatiladigan badiiy buyum. Kirpech kashtalari qoʻlda yoki mashinada tikilgan. Kirpech qoʻlda ilma kashta bilan bezaladi. U kiyim-kechakni changdan saqlaydi va uyni bezab turadi. Odatda, palakka oʻxshatib tikilgani kirpechpalak deb yuritilgan. Bu turi ham keng ishlatilgan. Soʻzana (fors. – igna bilan tikilgan) – mashina yoki qoʻlda matoga kashta tikib tayyorlanadigan badiiy buyum. Ip gazlama, shoyi, baxmal kabi sidirgʻa matolarga turli choklar (bosma, yoʻrma, popop)da kashta tikiladi. Kashta zamini sifatida mato rangi Soʻzana rang-baranglik hosil qilishda muhim rol oʻynashi bilan palaksan farq qiladi. Naqsh majmuasining markaziy maydoni (aylana gul va b.) va hoshiya (takrorlanuvchi 1-2 naqsh boʻlagi)dan tuzilgan toʻrtburchak, murabba shaklga ega boʻlib, asosan, oʻsimliksimon (baʼzan tasvirli, syujetli) naqsh gullardan iborat. Naqsh majmuasining asosiy chiziklari taxta yordamida matoga tushiriladi. Soʻzananing badiiyliigi, nafosati chevarning mahorati, uning ijodiy didi bilan belgilanadi. Ayniqsa, zardoʻzlikdz. tayyorlanadigan Soʻzanalar jilosi, jozibasi bilan ajralib turadi. Soʻzana odatda, xonani bezatish uchun devorga osiladi (ayrim mintaqalarda kelinkuyovlarning oʻrni ustiga yopiladi) [6]. Suzana (XIX-asr oxiri, Shaxrisabz). Oʻzbekiston va Tojikiston hududida qadimdan keng tarqalgan. Samarqand, Buxoro, Toshkent, Shaxrisabz va Boysun va boshqa hududlarda oʻziga xos tarzda tayyorlangan Soʻzanalar kashtasi, naqshi, rangi jihatdan xilmaxil boʻlib, ulardan namunalar respublika va xorijiy mamlakatlar muzeylarida, xususiy toʻplamlarda saqlanadi. XX asrning 20-30-yillarida Soʻzananing asosiy mujassamoti shakllandi (hoshiya ingichkalashdi, gullar yetakchi oʻrinni egalladi) ,40-yillardan mashina kashtadoʻzligining rivojlanishi bilan Soʻzana kashtalari mashinada ham tikila boshlandi, mavzuli, tasvirli Soʻzana mujassamotlari

yuzaga keldi. XX asr oxiriga kelib O‘zbekiston mustaqilligi (1991) dan keyin amaliy bezak san’atining barcha sohalarida bo‘lganidek, kashtado‘zlik (jumladan, uning So‘zana turi) ham jadal rivojlandi, So‘zana uchun mato va kashtalar uchun iplar tayyorlash keng yo‘lga qo‘yildi. Bunda Buxoro (3. A‘loberdiyeva, 3. Obloqulova va b.), Surxondaryo (A. Xolyorova va b.), Samarqand (S. Rahmatullayeva, M. Haydarova va b.), Toshkent (I.Davlatov, Z.Fayzullayeva va b.), Qashqadaryo (3. Hamidova va b.) kabi So‘zana tayyorlash markazlarining hissasi katta. Zamonaviy mujassamotli, nafis koloritli, serjilo, rangbarang So‘zanalar yaratilmoqda, ular xalqaro ko‘rgazmalar (AQSh, Fransiya, Italiya va b.)da namoyish etiladi, muzey va xususiy to‘plamlarda saqlanadi. So‘zana – igna bilan tikilgan degan ma‘noni beradi. So‘zana matoga kashta tikib tayyorlangan badiiy buyum bo‘lib, xonani bezatish uchun devorga ilib qo‘yiladi. U satin, baxmal, shoyi va boshqa matolarga kashta tikib tayyorlanadi. U o‘ziga xos badiiy ko‘rinishga ega. Matoning rangidan ustalarimiz kashta zamini sifatida foydalanadilar. Shuning uchun u palakdan fark kiladi. Suzana xar bir xonadonda bulgan, chunki har bir qiz turmushga chikishidan oldin o‘zi uchun so‘zana tayyorlagan. So‘zana kelinlarning sepi hisoblangan. Kambag‘al oilada so‘zanani malla, ok bo‘zdan, badavlatroqlarida esa shoyidan, baxmaldan tikishgan. So‘zana uchun kompozitsion joylashgan o‘simliksimon naqshlardan foydalanilgan. So‘zana o‘rtasida ko‘pincha doirasimon gul tikilib, atrofi guldor islimiy naqshlar bilan bezatiladi. So‘zana tikish juda qadimdan rivojlangan, lekin XIX asrgacha bo‘lgan suzanalar saqlanmagan. Faqat XIX asrga oid Samarqand, Buxoro, Nurota, Farg‘ona, O‘ratepa, Shahrisabz, Toshkent va boshqa joylardagi so‘zana turlaridan namunalar bor. San’atning bu turi ayniqsa, O‘zbekiston hududida qadimdan keng tarqalgan. Keyingi paytlarda so‘zana mashinada tikilib kelinmokda. Choyslab - forshatojikcha ruyjotun chodiri degan ma‘noni bildiradi. Choyslab, asosan taxmonga tutish, yotganda yopinish uchun to‘shak ustidan to‘shaladi. To‘shak ustidan yopiladigan choyslab ham kashtali oq surp, taxmonga tutiladigan satin, shoyi, baxmal va boshqalardan tikiladi. Hozirgi vaktida choyslabdan so‘zana kabi badiiy buyum sifatida ham foydalanib kelinmoqda. Kashta turli rangdagi ipak, mulina, zar ip bilan igna, ilmoqli bigizda har xil matoga mashinada gul tikishgan. Kashta har xil kiyimlarga, ro‘zg‘or buyumlarga tikiladi. Kashtachilikda mato, kigiz, charm, karton, zig‘ir, jun, sun‘iy iplar, zar iplar, mayin sim, xom charmdan tayyorlangan tasmalar, munchoq, marjon, qimmatbaho tabiiy va sun‘iy toshlar, shishadan tayyorlangan munchoqlar va boshqa materiallar ishlatiladi. Kashtachilikda o‘ziga xos ish qurollari mavjud bo‘lib, ular o‘ziga xos vazifani bajaradi. Kashtachilikda ignalar, ilmoqli va ilmoqsiz bigizlar, to‘g‘nag‘ich, angishvona qaychi hamda chambaraklar ishlatiladi. Chambarak asosan yog‘ochdan yasaladi, u doira, kvadrat, to‘g‘ri

to'rtburchak shaklida bo'ladi. Kichik kashtalarga doira chambarak ishlatiladi, chunki u qulaydir. Hamma kashtalarga ham chambarak ishlatilavermaydi. Ip va igna kashta tikiladigan matolar kalinligiga mos qilib tanlanadi[7]. Kashtachilikda yogoch dastali ikki xil, ya'ni ilmoqli va ilmoqsiz bigizlar ishlatilgan. Ayrim materiallarga, masalan, charm va kartonga qiynalmasdan tikish uchun ilmoqsiz bigizlar ishlatiladi. Naqshlar uchun o'tkir uchli 10-12 sm uzunlikdagi qaychilar ishlatiladi. Tikish qulay bo'lishi uchun katim 50-60 sm dan uzun bo'lmasligi lozim, kashta chambarakda tikilsa angishvona ko'llanilmaydi. Naqsh nusxasi turli materiallarga har xil yullar bilan tushiriladi. Masalan, nusxa ko'chiriladigan qog'ozlar taxta, yorug'lik yordamida material ustidan buklab chiqiladi, keyin bu qog'ozlar yirtib olinadi. Kashtaga iplar rangini moslab tanlash kashtado'zdan katta mahorat hamda did talab qilgan. To'g'ri tanlangan ip kashtaning jozibador chiqishiga sabab bo'lgan. Qo'lda kashta tikishning ikki turi mavjud: birinchisi matoning arqon hamda o'rim iplarini sanab kashta tikish, ikkinchisi, matoga gul tasvirini chizib, erkin kashta tikish. Arqon o'rim iplari kesishtirilib, polotno yoki bo'z shaklida to'qilgan matolarga tikiladi. Buning sababi kashta tikishda mato iplarini sanab tikishga qulaydir. Sanama kashta turi O'zbekistonda keng tarqalgan. Erkin kashta mato tanlamaydi, tushirilgan tasvir chiziqlari asosida tikiladi. O'zbek kashtachiligida yo'rma, ilma, iroqi, bosma, xomduzi, chamak, chipta xayol, bahya choklar keng tarkalgan. Badiiy kashtalarda turli joydan turli choklar ishlatiladi. Chunonchi, Shahrisabzda yo'rma, qandaxayol, iroqi, Toshkentda ko'proq bosma choki, Buxoro, Nurota, Samarqandda yo'rma choki bilan tikiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rui Gonsales de Klavixo. Samarkandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406 yillar) T: 2010. B. 199.
2. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil. B.263.
3. Чепелевская Г.Л. Сузани Узбекистана. Т.: 1961. С.25.
4. Dala yozuvlari Boysun tumani. Qizilnavr mfy.(2021-2022 y.y.).
5. Dala yozuvlari Boysun shah.Tuzbozor mfy.Istiqloq ko'chasi (2022- yil.)
6. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil. -B.263.
7. Dala yozuvlari, Muzrabot t. Do'stlik, Navro'z mapallari va Xushman qishlog'i (2021- 2022-y.y.).
8. Dala yozuvlari, Jarqo'rg'on t.Qoraqurm mahallasi va Hurnamandlari uyushmasi (2022- 2023 y.y.)